

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
“TABIATSHUNOSLIK” FAKULTETI

“Geografiya va Iqtisodiy bilim asoslari” ta'lim yo'nalishi

REFERAT

MAVZU: O'RTA OSIYONING TABIIY GEOGRAFIK O'RNI

**Ilmiy rahbar:
Bajardi:**

**Katta o'qit. O'rinov B. S.
Shoymirzayeva F.
II- kurs talabasi**

Navoiy-2010- yil.

MUNDARIJA:

- 1. Kirish**
- 2. O'rta Osiyoni tabiiy geografik o'rni va tekshirilish tarixi**
- 3. O'rta Osiyonining tabiiy geografik sharoiti**
- 4. O'rta Osiyoni organik dunyosi va tabiat zonalarini muhofaza qilish**
- 5. Xulosa**
- 6. Adabiyotlar ro'yxati**

KIRISH

Fanning maqsadi va vazifalari. «O'rta Osiyo geografiyasi» kursining maqsadi talabalarga O'rta Osiyoning tabiati, aholisi, xo'jaligi hamda ayrim davlatlar haqida bilimlar berishdir. Mazkur kursning asosiy vazifasi quyidagilardan iborat:

«O'rta Osiyo» tushunchasining mazmuni va mohiyatini ochib berish;

O'rta Osiyoning chegaralari, tekshirish tarixi hamda siyosiy xaritasining shakllanishi haqida bilimlar berish; O'rta Osiyoning tabiatini muhofaza qilish xususiyatlari haqida bilimlar berish; O'rta Osiyo tabiiy resurslari, axolisi va xo'jaligi haqida bilimlar berish; O'rta Osiyo davlatlari tavsifi bilan tanishtirish.

Talabalar mazkur kurs bo'yicha quyidagilarni bilishlari shart: «O'rta Osiyo» tushunchasining mazmuni va mohiyatini; O'rta Osiyoning geologik tuzilishi, reliefi, foydali qazilmalari, iqlimi, ichki suvlari, tuproq va o'simlik qoplamini haqida, hayvonot dunyosining o'ziga xos xususiyatlarini: O'rta Osiyoni tabiiy va siyosiy chegaralarini aniqlay olish; O'rta Osiyoning siyosiy xaritasining shakllanish bosqichlarini ajrata bilish; Tegishli xaritalardan foydalanib O'rta Osiyoning tabiiy geografiyasi va iqtisodiy geografik sharoitlarining tarkibiy qismlariga baho berish; O'rta Osiyo davlatlarining geografik tafsifini o'rganish.

O'rta Osiyo tushunchasi. O'rta Osiyo deganda siyosiy jixatdan Evrosiyo materigining ichki qismida joylashgan, O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston va Tojikiston davlatlari egallagan xududlari tushuniladi. Tabiiy geografik jihatidan O'rta Osiyo deganda shimoliy va janubiy Mug'ilitson shimoli-g'arbiy Xitoy, Tibet tog'lari kiradi. Turkiston tushunchasi ikki xil ma'noda ishlatiladi. Birinchidan, turkiy xalqlar yashaydigan o'lka ma'nosi tushiniladi. Ikkinchidan esa tabiiy geografik o'lka sifatida. Turkiston tabiiy geografik o'lkasini o'rniga «O'rta Osiyo» tushunchasi qo'llanilmoqda. Bundan tashqari «Turon» tushunchasi ham mavjud. Qadimda ushbu tushuncha hozirgi «O'rta Osiyo» hududini anglatgan.

Chegaralari. O'rta Osiyo tabiiy geografik o'lkasi Yevroosiyo materigining o'rtasida joylashgan bo'lib umumiy maydoni 3.995 mln km² ga teng. Shimoldan Janubga 2500 km, G'arbdan Sharqqa 2800 km ga cho'zilgan. O'rta Osiyo tabiiy geografik chegarasini quydagicha belgilash mumkin.

G'arbiy tomondan: Kaspiy dengizi qirg'oqlari bilan, shimoliy- g'arbiy chegara Emba daryosining etaklaridan boshlanib, Mug'ojar tog'larining janubiy etaklarigacha boradi. Chegara 58^o shimoliy kenglika etkandan. Shimoliga borib Jetig'ara shaxrigacha boradi, shimoliy-shariqqa tomon Kustanaygacha davom etadi va undan Ayirtovga borib, so'ng chegara janubiy-shariqqa tomon Qozog'iston pasd tog'larining shimoliy etaklari bo'ylab, Qozog'iston-Xitoy chegarasiga Savr tog'larining etagiga tutashadi.

Sharqiy chegarasi: Savr, sharqiy Jung'uriya, Boroxoro, Irenxabirga, Xorat, Xoliqtog' tizmalari suvayrig'ich orqali o'tib Xontangri tuguniga tutashadi, so'n Ko'kshag'altov, Otboshi tizmasi suvayrig'ichidan o'tib Farg'ona tizmasiga tutashadi va Olayning sharqiy qismi va sariqko'l tizmasi bo'yilib Xindiqush tizmasiga tutashadi.

Janubiy chegarasi: Xindiqush Safedkux, Nishopur tog' tizmalari suvayrig'ichdan o'tib El'brus tog'i orqali, Gorgan yaqinidan kaspiy dengizigacha tutashadi.

O'rta Osiyo tabiiy geografik o'lka sifatida olinsa uning xududi 4 ta respublika (O'zbekiston, Turkmaniston, Qirg'iston, Tojikiston) Qazog'istonning malum bir qismi. Iqtisodiy nuqtay nazardan esa 5 ta respublikaga bo'linadi.

Tekshirilish tarixi. O'rta Osiyo davlatlari hududi tabiatini o'rganish qadim davrlardan boshlangan. Chunki O'rta Osiyo g'arb va sharq davlatlari orasidagi muhim savdo yo'lida joylashgan. Qadimda o'lkamizda juda yirik davlatlar bo'lgan. (Baktriya, Sug'diyona). O'lkamiz haqidagi dastlabki ma'lumotlar **Gerodot, Arian, Ptolemey** va boshqalarning asarlarida uchratish mumkin.

O'rta Osiyo tabiati «Buyuk ipak yo'li» davrida xitoy, arab va maxalliy olimlar tomonidan yaxshi o'rganildi. Buyuk ipak yo'li miloddan avvalgi 2 asrdan eramizning 16 asrigacha asosiy savdo yo'li bo'lib xisoblangan. Xitoy sayyoxlari **Chjan Kan** va **Syuan Szan** o'lka tabiatini, xalqlarini va xo'jaligini o'rganib, muxim asarlar yozib qoldirishgan. Arab olimlaridan **Abdul Xasan Ali Ma'sudiy, Abu Isxoq Istaxriy, Yoqut ibn Abdulla** va boshqalar o'rta asrlarda o'lkamiz tabiatini va mamlakatlarini o'rganib kimmatbaxo asarlar yozib qoldirishgan. O'rta Osiyo tabiatini o'rganishda maxalliy olimlar juda katta hissa qo'shishgan. **Muxammad ibn Muso al-Xorazmiy** O'rta Osiyo geografiyasiga asos solgan. O'lkamiz tabiati, xo'jaligi, tarixi haqida buyuk olim **Abu Rayxon Beruniy(10-11 asr)** juda kimmatli asarlar yozib qoldirgan. **Zaxiriddin Muxammad Bobur (15-16 asr)** «Boburnoma» asarida O'rta Osiyo tabiati haqida muhim ma'lumotlar keltirgan.

O'rta Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingandan so'ng uning tabiati, xo'jaligi rus va o'zbek olimlari tomonidan atroflicha o'rganildi. Bu davrda o'lka tabiatini o'rganishga **P.P. Semenov-Tyanshanskiy, Yu I.V. Mushketov, V.A. Obruchev, L.S. Berg, N.L. Korjanevskiy, X.M. Abdullaev, Q. Zokirov, T. Zoxidov, X. Xasanov, Z. Akromov, L. Babushkin, N.A. Kogay** va boshqalar katta hissa qo'shdilar.

Geologik sharoiti. O'rta Osiyo xududi turli davrlarda va sharoitlarda hosil bo'lgan xilma-xil tog' jinslaridan iborat bo'lib. Yerning tarixi beshta eraga bo'linadi: arxey, proterozoy, mezozoy, kaynazoy. Mazkur eralarda beshta tog' xosil bo'lish sodir bo'lgan: Baykal yoki Rifey (Proterozoy erasida), Kaledon (Paleozoy erasining birinchi yarmida), Gertsin (Paleozoy erasining ikkinchi yarmida), Kemberiy va Paramiy (Mezozoy erasida), Alp (Kaynazoy erasida).

Arxey va Proterozoy eralarida O'rta Osiyo hududi dengiz ostida bo'lgan va cho'kindi jinslar to'plana boshlagan. Paleozoy erasidan boshlab O'rta Osiyo hududini qoplab yotgan Tetis dengizi ichida katta-kichik orollar ko'rinishidagi quruqliklar xosil bo'la boshlagan. Paleozoy erasining birinchi yarmida sodir bo'lgan kaledon tog' xosil bo'lishi bosqichida Qozog'iston past tog'larining g'arbiy qismi va Shimoliy Tyanshan tog'lari ko'tarilgan qolgan joylar dengiz ostida bo'lgan, ayrim joylarda vulqonlar otilib turgan. Natijada cho'kindi va vulkanik tog' jinslari hosil bo'lgan.

Paleozoy erasining ikkinchi yarmida gertsin tog' hosil bo'lish bosqichi sodir bo'lgan. Natijada quruqlik maydoni torayib chekina boshlagan. Bu bosqichda Tyanshan tog'ining qolgan qismlari, Qozog'iston tog'ining sharqiy qismi, Markaziy Qizilqumdagi past tog'lar ko'tarilgan. So'ngra ko'tarilgan tog'lar emirila boshlagan va Paleozoy erasining oxiri va mezozoy boshlarigacha aylanib kelgan.

Mezozoy erasida burmaning kuchsiz bo'lgan, Kimberiy burmalanishi natijasida asosan Kaspiy bo'yidagi past tog'lar va balandliklar ko'tarilgan. Bular: Mang'ishloq yarim orolidagi tog'lar, platosi va katta Bolxon tog'lari. Bu davr mobaynida tog' oraliqlarida va botiqlarda ko'llar, botqiqlar va sayoz dengiz qo'ltiqlari xosil bo'lgan. Mezozoy erasining o'rtalarida iqlim namligi va issiq bo'lgan, xilma-xil o'simliklar o'sgan. Ularning qoldiqlaridan toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir xosil bo'lgan. Mezozoy erasining oxirida iqlim juda quruq bo'lgan, natijada o'rmonlar yo'qolib ketgan. Kaynazoy erasining paleogen davrida dengiz yana bostirib keladi, tog'lar emirilib pasayib qoladi. Neogen davrida sodir bo'lgan Alp burmalanish natijasida Orkaoloy, Pomir, Kopetdog' ko'tarilgan. Tyan-Shan tog'i yana qaytadan ko'tarilib yoshargan. Janubida baland tog'larning xosil bo'lishi natijasida O'rta Osiyo hududi to'silib qoldi. Yirik tog' tizmalarining xosil bo'lishi natijasida balandlik mintaqalari vujudga keldi, Alp o'tloqlari shakllanadi, tog' muzliklari rivojlana boshlaydi. To'rtlamchi davr mobaynida O'rta Osiyo davlatlari tabiati hozirgi xolatining shakllanishi boshlangan. Xind okeani ta'sirining kamayishi va Tetis okeanining tamoman chekinishi natijasida iqlim qurqlashib cho'llar xosil bo'lgan, hozirgi daryo vodiylari shakllangan.

Zilzilalar. O'rta Osiyoda tez-tez er qimirlashlar sodir bo'lib turadi. Buning asosiy sababi Pomir va Tyan-Shan tog'larining ikkita litosfera plitalari: Yevrosiyo va Xindiston-Avstraliya plitalarining to'qnashgan chegaralarida joylashganligi va bu tog'larning to'xtovsiz ko'tarilayotganligidir. Shuning uchun zil-zilalar Pomir va Tyanshan tog'lari hamda ularning atrofida ko'proq sodir bo'lib turadi. Kuchsiz zilzilalar juda katta moddiyva ma'naviy zarar keltiradi. Falokatli zilzilalar kuzatilgan joylar:

1930- yilda Dushanbe atrofida,	1966 -yilda Toshkentda,
1946- yil qozonjiqda,	1976 -yilda Gazlida

1948- yilda Ashxabadda,

1992- yilda To'xtag'ulda

Relifi. O'rta Osiyoni relefining tuzilishi juda xilma-xil, bu o'lkada katta tekislik va pasttekisliklar, katta-katta plato va qirlar qator tizilib ketgan adirlar va doimiy qor va muzliklar bilan qoplanib yotgan baland tog'lar bor. Umumiy maydoning 2/3 tekislik va pasttekislik, qolgani esa qir va tog'lar egalagan. Eng balant nuqtasi Hindiqush tog'ida Tirichmir-7690 m. eng past nuqtasi Qoragiyo botig'I -132 m.

O'rta Osiyoning eng katta tekislik va pasttekisliklarga: Kaspiy bo'yi sohili, Qoraqum, Qizilqum, Mo'yinqum, Mirzacho'l, Qarshi cho'li, Farg'ona vodiysi, Zarafshon, Surxon-Sherobod, Qashqadaryo, Murg'ab-Tajan vodiylari, Xorazm, Balxashbo'yi qum tekisligi, Betpaqdala va Ustyurt platolari. Bu tekisliklar okean sathidan o'rtacha balantligi 100-150m. Qizilqum yerlari 250m Qoraqum yerlarida 100m Quyi Amudaryo va Orolning janubiyb sohillari 55-60 m ga teng.

O'rta Osiyo hududidagi tog'lar sistemasiga Savr, Torbog'otoy, Jung'oriya-Olatovi, Tyanshan, Olay-Hisor, Pomir, Turkman-Xurosan tog' tizmalari kiradi. Tog'larning balandligi sharqdan g'arbga tomon balantligi o'zgarib boradi.

Iqlimi. O'rta Osiyoning iqlimi quyidagi omillar ta'sirida vujudga keladi: geografik joylanish va quyosh radiatsiyasi, xavo massalarining harakati, relief (er yuzasining tuzilishi). O'lkamiz Yevrosiyo materigining markazida joylashgan, bu esa quyoshdan kelayotgan issiqlik miqdorini katta miqdorida bo'lishini ta'minlaydi. Quyoshning er yuzaga tushadigan nur energiyasi va issiqligi quyosh radiatsiyasi deb ataladi.

O'rta Osiyo shimoldan janub tomon katta masofaga cho'zilganligi munosabati bilan uning shimoli va janubida quyosh radiatsiyasining miqdori turlicha. Masalan, 22 iyunda (yozgi quyosh turishi) o'lkaning shimoliy qismida tush paytida quyoshning ufqdan balandligi 60^0 , janubida esa 79^0 ni tashkil qiladi. qoraqum cho'lining janubida 1 sm^2 yuzaga 150 k/kal issiqlik keladi. O'lka iqlimini vujudga kelishida arktika, mo''tadil va tropik xavo massalari muxim o'rin tutadi. O'rta Osiyo hududi uchun eng sovuq yanvar, eng issiq iyul oylari hisoblanadi.

Qishda: arktika va sibirning sovuq qutbiy havo massalarining kirib kelishi natijasida hududning shimoliy va markaziy qismi sovib ketadi. Eng past harorat o'lkaning shimoliy qismida -50^0 - -55^0 ga, markaziy qismida -30^0 - -40^0 , janubiy qismida -16^0 - -20^0 ga pasayadi. Yoz oylarida iyulning o'rtacha harorati Termiz va Sherobodda 31^0 - 32^0 ga, Qizilqumda 44^0 - 46^0 tuproq va qum 75^0 - 80^0 gacha qizdiradi.

O'rta Osiyo hududida yog'ingarchilik tekislikdan balandlika qarab o'zgarib boradi, tekisliklarda 70-200 mm, tog'li rayonlarda 1500-2000 mm atrofida kuzatiladi. **Ichki suvlari** . O'rta Osiyo xududida yer usti va osti suvlari juda ham notekis taqsimlangan. Bu yer usti suvlariga daryolar, ko'llar, botqoqlar va muzlar kiradi.

Daryolar. Daryolarning to'yinishi manbai turlicha, ular 4 guruhga bo'linadi:

1. Muzlik va qor suvidan to'yinadigan daryolar: (Amudaryo, Zarafshon, So'x, Isfayramsoy, Chuv, Ili, Lepsa, Oqsuv, Xo'jabaqirgan). Ularning suvi yozda ko'payadi. Mazkur daryolar Tyanshan, Pomir tog'laridagi muzlik va qorlardan suv oladi.

2. Qor va muzliklarning erishidan to'yinadigan daryolar: (Sirdaryo, Surxondaryo, Chirchiq, qoradaryo). Ularning suvlari iyun, iyul oylarida ko'payadi.

3. Doimiy va mavsumiy qorlarning erishidan to'yinadigan daryolar: (Oxangaron, qashqadaryo). Ushbu daryolarning suv oladigan manbaalari past tog'larda bo'lganidan sersuv emas, ularning suvi bahorda ko'payib, ba'zan toshadi, yozda esa suvi kamayib, sayozlanib qoladi.

4. Mavsumiy qor va yomg'irlardan to'yinadigan daryolar: (Murg'ob, Tajan, Atrek, G'uzordaryo, Sheroboddaryo, Sarisuv, Nura, To'rg'aydaryolari, Farg'ona vodiysi va Nurota tog'lari etagidagi adirlardan oquvchi daryolar). Ular kichik, sho'x va kam suvli daryolar bo'lib, baxorda ayinqla jala tarzida yog'adigan yomg'irlar va qatida juda sersuv bo'li, katta toshqinlarga sabab bo'ladi.

5. Er osti suvlaridan to'yinadigan daryo va soylar tog' etaklarida, adirlarda ko'p uchraydi. Ular Farg'ona, Norin, Issiqko'l vodiylari, Turkiston, Nurota, Zarafshon tog' etaklarida ko'p.

Amudaryo. O'rta Osiyodagi eng sersuv daryo. U Pomir tog'laridan oqib tushuvchi Panj va Vaxsh daryolarining qo'shilishidan hosil bo'ladi. Uzunligi 2540 km, xavzasining maydoni 320000 km². Amudaryoning o'ng irmoqlari Kofirnixon, Surxondaryo va Sherobod daryolari hisoblanadi, chap tomondan (Afg'onistondan) Qunduzdaryo quyiladi. Amudaryo qoraqum va qizilqum cho'llari oralig'idan oqib o'tib Orol dengizlariga quyiladi.

Sirdaryo. O'rta Osiyodagi eng uzun daryo. Uzunligi 3000km ga yaqin, xavzasi 463ming km². Markaziy Tyanshan tog'laridan boshlanuvchi Norin va Farg'ona hamda Oloy tog'laridan boshlanadi. Daryo shimolga tomon oqa boshlaydi, va shu erda unga o'ngdan Oxangaron Chirchiq, Keles daryolari kelib qo'shiladi. Sirdaryo shimolga tomon Qizilqumning chegarasi bo'ylab oqib, Orol dengiziga borib quyiladi.

Zarafshon. Daryosi Turkiston bilan Zarafshon tizma tog'lari orasida 2775 m balanda Kuksuv tog'idan Zarafshon muzligidan Mastchox daryosi nomi bilan boshlanadi. uzunligi 740 km xavzasi 42 ming km²

Qashqadaryo. Zarafshon va Xisor tog'larining g'arbiy tomonlaridan boshlanadi. Uzunligi 332 km

Ko'llari. Notekis taqsimlangan ko'llarning 80% tekisliklarda katta qismi (daryo vodiylarida, deltalari, Qozog'iston past tog'larida, To'rg'ay botig'ida) joylashgan. Tog'larda ko'llar kamroq.

Orol dengizi. O'rta Osiyoda eng kata ko'l kattaligi jihatidan dunyoda 4 ch o'rinda turadi. Maydoni 27000 km², uzunligi 414 km, Dengizning eng chuqur joyi uning g'arbiy qismida joylashgan (69m). Amudaryo va Sirdaryoning suvlari kuyiladi Dengiz suvining sho'rliги esa 10-11‰ dan 37‰ ga etdi.

Balxash ko'li. O'roldan so'ng ikkinchi o'rinda turadi, Qozog'iston past tog'larining janubida joylashgan, maydoni 17,8 ming km². g'arbdan sharqqa 605 km ga cho'zilgan, eng keng joyi 74 km, eng tor joyi 5km. Balxash sayoz ko'l bo'lib uning o'rtacha chuqurligi 6 m, g'arbiy qismi chuchuk 1,95g/l, bu qismiga Ili daryosi quyiladi. Sharqiy qismi sho'rroq (5‰). Balxash ko'lga Ili, qoratol, Oqsuv, Lepsa, Ayaguz daryolari quyiladi.

Issiqko'l. Tyanshan tog'lari orasida dengiz satxidan 1609 m balanda joylashgan. Maydoni 6200 km², uzunligi 182 km, eng chuqur joyi 702 m.

O'rta Osiyoning tog'li qismidagi ko'llarning deyarli barchasi tektonik ko'llardir.

Suv omborlari. qishloq xo'jalik ekinlarini namga eng chanqoq davrlarida suv bilan muntazam ta'minlash maqsadida O'lkada suv omborlar barpo etilgan. qoradaryoda – Andijon (Kampirrovot), Norindaryosida – To'xtag'il, Sirdaryoda – Chordara, qayroqqum, Amudaryoda – Tuyamo'yin, Ili daryosida – qopchig'ay, Vaxshda – Norak, qoshqadaryoda – Chimqo'rg'on, Surxondaryoda – JanubiySurxon, qoraqum kanalida – Xovuzxon suv omborlari ko'rilgan. Ulardan qrpchig'ay, To'g'tag'ul, Tuyamo'yin, Chordara va qayroqqum suv omborlari eng yirik xisoblanadi.

Tuproqlari. O'rta Osiyoda quyidagi tuproq turlari tarqalgan:

- a) cho'l tuproqlari; v) tog'-o'rmon-dasht tuproq-lari;
- b) bo'z tuproqlari; g) baland tog' tuproqlari.

Cho'l tuproqlari cho'llarda asosan sur tusli qo'ngir tuproqlar, taqir va taqirli tuproqlar, cho'l kumli tuproqlar va o'tloq allyuvial tuproqlar tarqalgan. Sur tusli qo'ng'ir tuproqlar qadimgi qoldiq qirlpar va tog' etaklaridagi toshloq yyerlarda paydo bo'lgan. Ularning tarkibida shag'al va toshlar ko'p. Chirindi kam (0,2-0,3%), chirindili qatlam 25-35 sm, fosfor ko'p, azot kam, 20-30 sm chuqurlikdan boshlab sulfat va xlorid tuzlari bilan sho'rlangan. Sertosh, gipsli bo'lgani va tuzli qatlamning yuzada joylashagnligi tufayli xosildorligi past.

Taqirlar va taqirli tuproqlar qadimgi allyuvial tekkisliklarda, delta tekkisliklarda, tog'larning etaklaridagi qiya tekkisliklarida. Murg'ob, Tajan, Qashqadaryo, Sherobodaryo hamda kichikroq soylar yoyilmalarida tarqalgan. O'simlik o'smaydigan, yorilib ketadigan, zich, qatqaloqli yalang tekkis joylar taqirlar deb ataladi. Chirindi oz (0,3-0,7%), chirindili qatlamning qalainligi 15-25 sm, tarkibida azot kam. Taqirli tuproqlar qadimgi daryo vodiylarida, qurib qolgan eski deltalarda, daryo qayirlarida, Ustyurtda, Qorakum, Qizilkumdagi past tog'lar va qirlarning etaklarida ko'p uchraydi.

O'tloq allyuvial tuproqlar Amudaryo, Sirdaryo, Ili kabi yirik daryolarning deltalarida katta maydonlarni egallaydi. Chirindi miqdori 1,0-1,5 %, chirindili qatlam 1-2 m, ancha unumdor lekin tez sho'rlanadi.

Bo'z tuproqlari Tyanshan, Pomir, Kopetdog' tog'lari etaklarida va tog' etagidagi qiya tepaliklarda shakllangan. Bo'z tuproqlar mintaqasida pastdan yuqori tomon biologi-iqlim sharoitning o'zgarishiga muvofiq ravishda och tusli, oddiy va to'q tusli tuproqlar almashinadi. Yuqoriga tomon chirindi miqdori ortib boradi: och bo'z tuproqda 1,0-1,5%, oddiy bo'z tuproqda 1,5-2,5 %, to'q bo'z tuproqda 2,5-4,0 %. O'rta Osiyoning asosiy dehqonchilik rayonlari bo'z tuproq mintaqasida joylashgan. Tog'-o'rmon-dasht tuproqlari bo'z tuproqlar mintaqasidan 1100-1400 m dan, 2500-2600 m gacha balanlikda joylashgan. Chirindi miqdori ko'p (4-6 %), sho'rlanmaydi, qalin o't o'simliklari bilan qoplanib yotadi.

Baland tog' tuproqlari tog' yaylovlari tuproqlardan iborat. Subalp va alp mintaqalari tuproqlaridan iborat. Qalinligi kam va keng tarqalmagan. Uning qora tuproqsimon, tog'-o'tloq, xaqiqiytog'-o'tloq va tog'-dasht turlari ajratiladi. Alp mintaqasi tuproqlari 3000-3500 m va undan ham balandroqda tarqalgan. Tuproq qoplami juda yupqa.

O'simliklari. O'lkada 9000ga yaqin o'simlik turi mavjud, ularning 8000 turi tog'larda, 1000 turi esa tekkisliklarda. O'rta Osiyoda dasht, chalacho'l, cho'l, to'kay va tog' usimliklari ajratiladi.

Dasht usimliklari. Qozog'iston past tog'larining 52⁰ shimoliy kenglikdan shimoldagi hududlarda tarqalgan. Boshhoqli o't o'simliklari keng targ'algan: chalov, betaga, yaltirbosh, qo'ng'irbosh, shuvoq, butalaridan qarag'ay, tabulg'i, itbodom va boshqalar o'sadi.

Chala cho'l o'simliklari 52⁰-48⁰ shimoliy kenliklar oralig'ida tarqalgan. Xaydalmagan yerlar ko'proq. Boshhoqli o'tlardan shuvoq, chalov, qo'ngirboshlar aralash o'sadi. Sho'rlangan yerlarda oq shuvoq, qora shuvoq, burgan, qora chalov o'simliklari keng tarqalgan.

Cho'l o'simliklari. Turon tekkisligini o'z ichiga oladi. Bu erda qumli, toshli, sho'rxok, lyosli cho'l o'simliklari ajratiladi. Qumli cho'l o'simliklari. Bo'rsiq, Muyunqum, Qoraqum, sariqsuv, Balxashbo'yi qumlari Orolbo'yi Qoraqumi, Unguz orti Qoraqumi hamda Qizilqumning katta qismini egallaydi. Daraxtlardan oq saksavul, yirik juzgun serob. Butalardan qum akatsiyasi, efedra va chala butalardan shuvoq, pechak va sho'ralar keng tarqalgan. O't-o'simliklardan iloq, boshoklilardan qo'ngirbosh, arpag'on, lola, boychechak, gulsapsar ko'p o'sadi. O't o'simliklari bir yillik efemer va o'p yillik efemyerlardan iborat. Toshli(gipsli) tog' o'simliklari kichikroq maylonni egallaydi. Ustyurt, Qorsakboy, Betpakdala, mang'iloq, Qoraqum, qizilqumdagi qoldiq tepalik va past tog'lar etaklarida keng rivojlangan. O'simliklari siyrak, shuvoq, chala butalardan sho'raklar, tuyatovon, kermak, toshbaqatol, kovraklar o'sadi. Efemer va efemeroidlvar o'smaydi.

Sho'rxok cho'l o'simliklari. Botiqlarda, er osti suvlari yuzasiga chiqib yotadigan yerlarda tarqalgan. Sho'rxok yerlarda o'simliklar deyarli o'smaydi, amochni atrofida sho'ralardan bir yillik sho'rak, qorabargo't, qizil sho'ra, er bag'irlab o'sadigan chala buta sarazon, ajriq, qora saksavul, burgan o'sadi. Lessli cho'l yoki efemer cho'l o'simliklari. Mirzacho'lda, Zarafshon vodiysida, Badhiz cho'lida, Kopetdog' oldida, Murg'ob Amudaryo oralig'ida, Toshkent oldidagi, Kalas tekkisligida, Qashqadaryo va Surhondaryoning tog' oldilaridagi lyosli hududlarda uchraydi. O'simliklari boy. Asosan lola va g'o'ng'irbosh keng tarqalgan. Bu erda boychechaklar, ayiqtovon, arpag'on, mortuq, chatir, lolalar o'sadi.

To'qayo'simliklari. Daryolar vodiylarida, ko'llarning bo'ylarida to'qayo'simliklari keng tarqalgan. Bu erda asosan daraxt, buta va o'tlar o'sadi. Daraxtlardan turong'il, tol va jiyda ko'p. Butalardan yulg'un, jing'il va oq tipchak o'sadi. O'tlardan pastkam joylarda qo'g'a, balandroq joylarda savacho'p, yantoq, oqbosh qizilmiya o'sadi.

Tog' o'simliklari. Adir, tog' va baland tog' yavlovlari o'simliklariga bo'linadi. Adir o'simliklari. Adirlar past (500-800m) va tog'ora (1000-1200m) adirlarga bo'linadi. Adirlar asosan rangbarang o'simliklardan iborat. O'simliklardan ko'p yillik yirik o'tlar - qo'ziquloq, oqquray, qizil shuvoq, bug'doyiqlar o'sadi. Yuqori adirlarning toshli va shag'alli yonbag'irlarida butalar o'sadi. Tog' o'simliklari. Mazkur mintaqada dengiz sathidan 1200-1500 dan 2800-3000 m balanlikkacha bo'lgan yerlarni egallaydi. Tog' dasht va tog'-o'rmon o'simliklariga ajratiladi. Tog'-dasht o'simliklari asosan bug'doyiq, xarhil o'tlar, qo'ziquloq, astragal, bo'tako'z, yovvoyi beda va boshqalardir. Butalardan na'matak, yovvoyi olcha, zirk(qoraqand) o'sadi. Tog' o'rmonlari. Tog' o'rmondari 2000 dan 2800 m gacha balanlikda tarqalgan. Shimoliy Tyanshan, Tarbog'atoyo, Jung'oriya Olatovida igna bargli va bargli o'rmonlar tarqalgan. G'arbiy va Janubiy Tyanshanda o'rmonlar asosan mevali daraxtlardan iborat (olma, tog'olcha, nok, yong'oq, bodom, do'lana, anor, anjir, chilonjiyda, xurmo, tok). Mevasiz daraxtlardan zarang, qayin, chetan, terak va tollar o'sadi.

Yaylov o'simliklari. Ular 2700-2800 m va undan baland hududlarni egallagan. Tog' yaylov o'simliklari alp va subalp o'tloq o'simliklarida iborat. Subalp o'tloqlari o'rmon mintaqasidan keyin boshlanadi. O'tloqlar bilan birga archazorlar ham uchrab turadi. O'tlar zich o'sadi, bo'yi prast, ammo turi ko'p, gullari yirik va rangbarang bo'ladi. Bu erda qo'ng'irbosh, tulkiyuyruq, sovuqqa chidamli oq aneman, pushti qo'qongul, qo'ziquloq, sassiquvaray, chiyir ko'p tarqalgan. Alp o'tloqlari subalp o'tloqlaridan yuqoriroqda joylashadi va qor chizig'igacha davom etadi. O'tlar er bag'irlab usadi.

Hayvonot dunyosi. O'rta Osiyo xayvonlari chala cho'llarda, cho'llarda, tog'larda, va suv havzalarida yashaydi. Ular suvsizlikka, sovuqqa, issiqqa, noqulay relef sharoitlariga, baland tog' sharoitiga moslashganlar.

Chala cho'l xayvonlari mavsumga ko'ra o'zgarib turadi. Yozda janubdan issiqsevar xayvonlar (chayon, kaltakesaklar), ayrim qushlar(to'rg'ay, loyho'rak) kirib keladi. Qishda ular qaytib ketishadi, ayrimlari esa uyquga ketadi(qo'shoyoq va boshqalar). Qishda shiimoldan oq kaklik, qutb boyqushi kirib keladi. Chopqir xayvonlardan qishda oyquyruq ham yashaydi, chala cho'llarda yumronqoziqlar birga qo'shoyoqlar, cho'l sichqoni, dala sichqoni, qum sichqoni, kalamush va ko'rsichqon ham tarqalgan. Cho'llarining etaklari sho'rlanmagan joylarida (Betpakdala, Orolbo'yi, Shimoliy Ustyurt, To'rog'ay o'lkasi, Balxash bo'yi) tuyoqli xayvonlardan oqquyruq, jayron, yovvoyi qo'y, qo'lon. Xashoratlardan chayon, qoraqurt yashaydi.

Cho'l xayvonlari issiqqa va suvsizlikka turlicha moslashgan. Ba'zilari umuman suv ichmaydi, ba'zilari esa kechasi hayot kechiradi, ba'zilari salqin joylarda yashaydi, ba'zilari ildizlarni eb, undagi suv bilan qanoatlanadi. Cho'llarda eng ko'p tarqalgan xayvonlar yumronqoziqlar (malla va qum yumronqoziqlari), qo'shoyoqlar va sichqonlardir. Sudralib yuruvchilardan toshbaqa va kaltakesaklar nihoyatda ko'p. Kaltakesaklardan yumoloqbosh, kum kaltakesagi, echkiemar, agamalar yashaydi. Ilonlardan bo'g'ma ilon, o'qilon, zaxarli charxilon, ko'lvar ilon, ko'zoynakli ilonlar tarqalgan. Yirtqich xayvolardan tulki, chiyabo'ri, qum mushugi va boshqalar yashaydi. Qizilqumdagi saksovullarda buxoro bug'usi – xongul yashaydi. Qushlardan saksovul to'rg'ayi, maykuti (slavka) cho'l qarg'asi, saksovul chumchug'i va boshqalar uchraydi.

Tog' xayvonlari balandlik mintaqalariga qaroab o'zgaradi. Tog' chalacho'l xayvonlari, tekislik chalacho'l xayvonlari bilan bir xil. Tog' quruq cho'llarida tulki, bo'ri, jiyron, sirtlon uchraydi, ammo mazkur mintaqada cho'lga xos bo'lgan xayvonlar uchramaydi. Keng bargli o'rmonlarda jayron, ayiq, to'ng'iz, bo'rsiq uchraydi. To'ng'iz daryo bo'ylarida ko'proq tarqalgan. Qushlardan jannat xashoratxo'ri, kaptar, maykut, oq boshli sava, va boshqalar uchraydi. Ignabargli o'rmonlarda elik(kiyik), Jung'oriya Olatovuda maral (bug'i), yirtqich xayvonlardan silovsin, turkiston yirtqich laychasi, ayiq, manul mushugi (Ettisuvda) tarqalgan. Archazorlarda o'rmon sichqonldari, tog' sichqonlaroi, qushlardan boltatumshuq, tog' sariq chumchug'i, chittak va tog' kakligi uchraydi. Subalp va alp mintaqasida tog' takasi, tog' kiyigi, tog' qo'yi(arxar), qor qoplani, kemiruvchilardan sug'ur tarqalgan. Qushlardan Ximoloyqora kurkasi, tog' zag'chasi, tog' to'rg'ayi, alp chumchuksimon qushi, boltayutar tarqalgan.

To'qay xayvonlari Sirdaryo, Amudaryo, Ili, Chu va boshqa daryolar qayirlaridagi to'qaylarda va daraxtzorlarda tarqalgan. To'qaylarda to'ng'iz, bug'i, to'qaymushugi, quyon, o'rdak, g'oz, qirg'ovul, payho'rak, baklan, birqozon, saqqoqush va boshqalar tarqalgan.

Tabiat zonalari. tabiatni muhofaza qilish: O'rta Osiyo davlatlari hududida tabiat zonalari gorizontal (ko'ndalang) va vertikal (bo'ylama) yo'nalishda almashinadi. Shuning uchun tekkislik va tog'lar tabiat zonalari bir-bir bilan keskin farq qiladi.

Tekkislik tabiat zonalari. O'rta Osiyoda ikkita iqlim mintaqasi ajratiladi: mo'tadil va subtropik. Mo'tadil iqlim mintaqasida dasht, chalacho'l va cho'l subtropik iqlim mintaqasida cho'l tabiat zonalari ajratiladi.

Dasht zonasiga To'rg'ay platosining shimoliy qismi, Qozog'iston passt tog'larining shimoliy va markaziy qismlari kiradi. Iqlimi quruq, yog'in miqdori kam, baxor va kuz qisqa. Yillik yog'in miqdori 300 mm, qishning o'rtacha harorati $-17-18^0$ daraja, iyulniki $20-24^0$ daraja. Shimolda qora, janubda qora tuproqlar tarqalgan. O'simliklari pakan qiyoy, chalov, betaga, zig'ir, yo'ngichka, ayiqtovon, yaltirbosh, xayvonlardan kemiruvchilar keng tarqalgan.

Chala cho'l zonasiga To'rg'aysupasimon o'lkasining va Qozog'iston past tog'larining janubiy qismlari kiradi. Qishi sovuq, yanvarning o'rtacha xarorati -16^0 daraja, yozi issiq, iyunning o'rtacha xarorati $23-26^0$ daraja, yillik yog'in miqdori 200-250 mm. Asosan kashtan tuproqlar tarqalgan, o'simliklardan burgan, qorashuvoq o'sadi.

Cho'l zonasiga Turon tekkisligi va Balxashbo'yi tekkisliklari kiradi. Tekkisliklar Qoraqum, Qizilqum, Balxash bo'yi, Orol bo'yi va boshqa cho'llardan iborat. Harorat yuqori, namlik kam, o'simlik koplami siyrak. Qumli surqo'ng'ir gilli toshloq va bo'z tuproqlar tarqalgan. O'simliklardan saksovul, yantoq, quyonsuyak, sho'ra va shuvoq uchraydi. Xayvonlardan chayon, falanga, gekkon kaltakesagi, echkiemar, bo'g'ma ilon, ko'zoynakli ilon, efa iloni va qulonlar yashaydi.

Subtropik cho'llar zonasiga Turkman – Xuroson tog'lari va Atrek vodiysi kiradi. Iqlimi quruq subtropik. Bo'z tuproqlar tarqalgan, yonbag'irlarda changalzorlar, archazorlar va pistazorlar keng tarqalgan.

Balandlik mintaqalari. O'rta Osiyodagi tog'larning etaklari cho'llarga borib taqalgani uchun balandlik mintaqalari cho'ldan boshlanadi.

Cho'l zonasi Markaziy Qizilqumdagi tog' etaklarida va yonbag'irlarda, Kopetdog' etaklarida, Sulton Uvays tog'i etaklarida keng tarkalgan.

Chala cho'l zonasi adirlarni o'z ichiga oladi (500-1200m). Bo'z tuproqlar tarqalgan, o'simliklari asosan rang va qo'ng'ir boshdan iborat. Xarorat yozda 35^0-40^0 qishda esa -15^0-20^0 gacha pasayadi. Yog'inlar asosan bahor va qishda yog'adi.

Dasht zonasiga balandligi 1200 m dan 2000 m gacha bo'lgan tog'lar kiradi. Bo'z va jigarrang tuproqlar tarqalgan. O'simliklardan bug'doy, shuvoq, chalov, toshkakra, bozulbong kabi efemyerlardan iborat.

O'rmon-dasht va o'rmon zonasi. Dengiz sathidan 2700 m gacha bo'lgan hududlar kiradi, tog' o'rmon-qo'ng'ir tuproqlar tarqalgan. Yog'in miqdori 800 mm dan 1000-1200m gacha boradi, Yozda ham yomg'ir yog'adi. Savur archa, yong'oq, zarvang, na'matak keng tarqalgan.

Subalp va alp o'tloqlari zonasi balandligi 2700 m dan yuqori bo'lgan tog' yaylovlarini o'z ichiga oladi. Asosan o't o'simliklari o'sadi. Och va to'q qo'ng'ir tuproqlar tarqalgan. Yillik o'rtacha harorat 6-8 daraja, yog'in miqdori 600-1000 mm. Subalp o'tloqlariga balandligi 2700-2800 m dan 3200 m gacha bo'lgan joylar kiradi. Och jigarrang va och qo'ng'ir tuproqlar tarqalgan. Boshqali va chim xosil qiluvchi o'simliklar keng tarqalgan. Daraxtlardan o'ram archa, chetan, o'tlardan kuziniya, yaylov, betaga, geran va boshqalar o'sadi. Alp o'tloqlari 3200 m dan baland bo'lgan joylarda tarqalgan. To'q jigarrang va qo'ng'ir tuproqlar tarqalgan. Asosan kserofit o'simliklar o'sadi: arpao't, ajriqbosh, yaylovrang, yaylov qo'ng'irboshi va boshqalar tarqalgan.

Qor va muzlar (nival) zonasiga tog'larning doimiyqor va muzlar bilan qoplangan qismlar kiradi. Xarorat past, yog'inlar yil davomida yog'adi, yoqqan qor erib ulgurmasdan to'planib muzga aylanadi.

O'rta Osiyoda yo'qolib borayotgan va noyob hayvon turlarini muhofoza qilish maqsadida, "Qizil kitob" tashkilqilingan. 1972- yil 1 yanvarda Xalqora "Qizil kitob" tashkil etilgan. O'zbekistonda 1983- yilda bu qo'riqxonada sut emizuvchilar 22 turi, qushlar 31 turi, sudralib yuruvchilar 5 turi, baliqlar 5 xili.

Amudaryo qo'riqxonasi. 1982 t.q.

Bodayto'qay qo'riqxonasi. 1971 t.q.

Borsakelmas qo'riqxonasi. 1939 t.q.

Zarafshon qo'riqxonasi. 1975 t.q.

Issiqqo'l qo'riqxonasi 1948 t.q.

Kopetdog' qo'riqxonasi. 1976 t.q.

Qo'rg'olji qo'riqxonasi. 1958 t.q.

Ko'hitang qo'riqxonasi. 1991 t.q.

Norin qo'riqxonasi. 1938 t.q.

Almati qo'riqxonasi. 1931 t.q.

Payg'ambarorol qo'riqxonasi. 1960 t.q.

Repetek qo'riqxonasi. 1928 t.q.

Syunt-Xasardog' qo'riqxonasi. 1979 t.q.

Ustyurt qo'riqxonasi qo'riqxonasi. 1984 t.q.

Qizilqum qo'riqxonasi. 1979 t. q.

Beshorol qo'riqxonasi. 1979 t.q.

Bodhiz qo'riqxonasi. 1941 t.q.

Dashti-Jum qo'riqxonasi. 1983 t.q.

Zomin qo'riqxonasi. 1959 t.q.

Kitob qo'riqxonasi. 1979 t.q.

Hasanko'li qo'riqxonasi 1932 t.q.

Hisor qo'riqxonasi. 1975 t.q.

Nourzum qo'riqxonasi. 1951 t.q.

Nurota qo'riqxonasi. 1975 t.q.

Oqsuv-jibalg'i qo'riqxonasi. 1920 t.q.

Ramit qo'riqxonasi. 1959 t.q.

Sarichelak qo'riqxonasi. 1959 t.q.

Tigrovaya balka qo'riqxonasi. 1938 t.q.

Chotqol qo'riqxonasi. 1947 t.q.

Qoplonqir qo'riqxonasi. 1979 t.q.

Savol va topshiriqlar:

- 1.O'rta Osiyo fani nimani o'rgatadi?
- 2.Xitoyliklardan kimlar O'rta Osiyoni o'rgangan?
3. O'rta Osiyoning qaysi qismida uning chegarasi dengiz qirg'oqlari orqali o'tadi? 4.Olimlarni fikrlari?
- 5.O'rta Osiyo hududining rivojlanishida qanday era va davrlarni o'z ichiga oladi? 6.Zilzillar qayirlarda kuzatilgan?
- 7.O'rta Osiyo iqlimini shakllanishida qaysi havo massalari muhim rol o'ynaydi?
- 8.O'rta Osiyo daryolari to'yinishiga ko'ra qaysi turlarga bo'linadi?
- 10.O'rta Osiyoning qaysi qismida ko'llar ko'proq?